

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 811.111'373.2+811.111'367:34:008

INGLIZ HUQUQIY MATNLARI TILI LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATDAN TAHLILI**АНАЛИЗ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ И ГРАММАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ В ЛИНГВОКУЛЬТУРНОМ АСПЕКТЕ****ANALYSIS OF THE LEXICAL-SEMANTIC AND GRAMMATICAL FEATURES OF THE LANGUAGE OF THE ENGLISH LEGAL TEXTS FROM A LINGUOCULTURAL ASPECT****Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi** 

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda xalqaro miqyosda eng nufuzli va keng tarqalgan huquqiy aloqa vositasi hisoblangan ingliz huquqiy matnlari tilining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari madaniyat bilan bog'lagan holda tahlil qilingan va mazkur sohada izlanishlar olib borgan olimlar va ularning asarlariga to'xtalib o'tilgan. Tadqiqot davomida ingliz huquqiy matnlari tilining rasmiylik darajasi, aniq ma'no ifodasi va madaniy ma'nosi sistemali-funksional grammatik, lingvokulturologik va diskursiv yondashuv tahlillariga asoslanib o'rganiladi.

Аннотация

В данной статье анализируются лексико-семантические и грамматические особенности англоязычных юридических текстов, которые сегодня считаются наиболее престижными и распространенными юридическими средствами коммуникации на международном уровне, в связи с культурой, а также затрагиваются ученые и их работы, проводившие исследования в этой области. В ходе исследования уровень формальности, выразительность и культурное значение языка английских юридических текстов изучаются на основе анализа системно-функционального грамматического, лингвокультурологического и дискурсивного подходов.

Abstract

This article analyzes the lexical-semantic and grammatical features of the English legal texts, which today are considered the most prestigious and widespread legal means of communication internationally, in connection with culture, and touches on scientists and their works who have conducted research in this field. In the course of the study, the level of formality, the expression and cultural meaning of the language of English legal texts are studied based on the analysis of a systematic-functional grammatical, linguocultural and discursive approach.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, ingliz huquqiy matnlari tili, legalizm, leksik-semantik tahlil, grammatik xususiyatlar

Ключевые слова: лингвокультурология, язык юридических текстов на английском языке, юридический язык, лексико-семантический анализ, грамматические особенности

Key words: linguoculturology, language of English legal texts, legalese, lexical-semantic analysis, grammatical features

KIRISH

Hozirgi kunda til o'rganishga bo'lgan e'tibor yuqori bo'lish bilan birgalikda, turli kasblarning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishib chiqishga ham katta shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Insonning kasbiy muloqotiga u yashaydigan millati, madaniyati va urf-odatlar, ijtimoiy qarashlarining ta'siri sezilib turganligi boisidan ham turli kasb egalarining turli tillarda ma'lum o'ziga xosliklarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ingliz huquqiy matnlari tili ham shunchaki aloqa vositasigina bo'lib qolmasdan, balki xalqaro huquqiy muloqot, bitim, shartnomalar tuzish, sud himoyasi va qonunchilikni anglash uchun zarur bo'lgan strategik bilimlar majmuyi hisoblanadi. Ingliz huquqiy matnlari tilini o'rganish til va kasbiy bilim bilan birgalikda kechadigan mazkur millatning milliy mentaliteti, dunyoqarashi va madaniyatini ham o'rganishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz olimi K.Amadi ingliz qonun tili (Legal English) borasida chuqur izlanishlar olib borib, uning o'ziga xos leksik-sintaktik xususiyatlarini hamda uni o'qitish va o'rganishning pedagogik

TILSHUNOSLIK

ahamiyatini ham ochib bergan [1,25]. V.Batia, D.Kristal, D.Devy, K.Goddard, J.Northcott, J.Ramsfild, S.Susanto, M.Tiersma, I.Veretina kabi bir qator olimlar ingliz huquqiy matnlari tilining o'ziga xosliklari borasida ilmiy izlanishlar olib borib, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (English for Specific Purposes) o'qitish jarayoniga alohida bo'lim qilib kiritilgan huquqiy matnlari tilini tadqiqot obyekti sifatida qarashgan. D.Melinkoff o'zining "The Language of the Law" (Huquq tili) asari bilan ushbu soha rivojiga salmoqli hissa qo'shgan [7]. U huquqshunoslik sohasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'p jihatdan ochib beradi. Shuningdek, huquq tili degan terminning mohiyatidan tortib, tarixiy bosqinlar va ularning huquq tizimiga ko'rsatgan ta'sirlari hamda ingliz tili taraqqiyoti davomida yuz bergan o'zgarishlar va o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etilgan. Mazkur tadqiqot ishi sistemali-funksional grammatik, lingvokulturologik va diskurs yondashuvi metodlaridan foydalangan holda ingliz huquqiy matnlari tilining o'ziga xos leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini madaniyat ta'siri bilan bog'lagan holda o'rganadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Huquqiy matnlar tili – bu soha mutaxassislari tomonidan rasmiy huquqiy nutqda ishlatiladigan og'zaki va yozma til hisoblanib, ular qonunlar, huquqiy kodekslar, me'yorlar, shartnoma va kelishuvlar, sud qarorlari, hisobotlar, vasiyatnomalar va huquqiy darsliklarda ko'rinadi. Bu turdagi tildan faqat mutaxassislarga foydalanib qolmay, balki oddiy aholi ham qonunchilikni yaxshiroq anglash uchun qiziqish bildirishlari tabiiy holdir. Ingliz qonun tili (LE) uchta yondashuvga ko'ra o'rganiladi:

ELP (English for Legal Purposes)

EALP (English for Academic Legal Purposes)
Akademik yuridik maqsadlar uchun ingliz tili

EOLP (English for Occupational Legal Purposes)
Kasbiy yuridik maqsadlar uchun ingliz tili

EGLP (English for General Legal Purposes) Umumiy
yuridik maqsadlar uchun ingliz tili

Ingliz huquqiy matnlari tilning eng birinchi xususiyati sifatida murakkabligi, tushunilishi qiyinligini aytib o'tish mumkin. Bunga murakkab sintaktik tuzilmalar, maxsus termin va jargonlardan foydalanish, ko'p ma'noli so'zlar va turli tillardan kelib chiqqan so'zlardan foydalanish sabab bo'ladi. Huquqshunoslik sohasidagi ko'plab so'zlar tarixiy rivojlanish ta'siri ostida kelib chiqishidan anglo-sakson, lotin va fransuz tillariga borib taqaladi. D.Melinkoffning asari orqali ham qadimgi fransuz va lotin tilidan olingan advokatlik terminlarini Angliya-Fransiya o'rtasidagi tarixiy-huquqiy aloqalari bilan bog'liqligini bilish mumkin [2,13]. Masalan:

Lotincha	Fransuzcha
<i>Habeas corpus</i>	<i>Force majeure</i>
<i>Sub justice</i>	<i>Droit acquis</i>
<i>Prima facie</i>	<i>Raison d'etat</i>
<i>Mens rea</i>	<i>Voir dire</i>
<i>Pro bono</i>	<i>Tort</i>
<i>Ex parte</i>	<i>Plaintiff</i>
<i>De facto</i>	<i>Bailiff</i>
<i>Ipsa facto</i>	<i>Liaison</i>

Kelib chiqishidan lotin va fransuz tillariga borib taqaladigan soʻz va soʻz birikmalarining ishlatilishi qonunchilikda geografik joylashuv, urf-odatlar va tarixiy-huquqiy anʼanalar yaʼni ijtimoiy-madaniy fenomen taʼsirida farqlanadigan qonunchilik turlariga (Common law va Civil law) bogʻliq ekanligi ham koʻrinadi. Bunda fuqarolik-huquqiy anʼanasi (Civil Law Tradition) kelib chiqishidan rim qonunchiliklariga borib taqaladigan va keyinchalik Napoleon kodeksi orqali shakllangan huquq tizimi boʻlib, asosan Fransiya, Germaniya, Italiya, Lotin Amerikasi, (Kvebek, Kipr, Malta va boshqa oʻz rasmiy tili bilan birgalikda qonunchilik tili sifatida ingliz tilidan foydalanadigan hududlar)da oʻz amaliy kuchini saqlab kelmoqda. Konstitutsiyaviy huquq anʼanalari (Common Law Traditions) Norman bosqini natijasida shakllangan, asosiy manba sifatida sud qarorlariga tayanadigan tizim boʻlib, Angliya, AQSh, Kanada, Avstraliya hududlarida faol qoʻllaniladi. Tarixiy rivojlanish bosqichlari turlicha boʻlganligi sababidan etimologik jihatdan Civil Law tizimida koʻproq fransuzcha, Common Law tizimida esa koʻp hollarda lotincha soʻz va iboralar qonunchilik amaliyotida faol qoʻllaniladi.

Shuningdek, D.Melinkoff qadimgi fransuzcha va inglizcha variantlardagi sinonimik soʻzlardan juftlik hosil qilib foydalanish ham uslubiy va rasmiylik jihatidan yuridik tilga oʻziga xos dramatik tus berishini taʼkidlab oʻtgan [7,15]:

Cease and desist – ikkalasi ham toʻxtatish maʼnosini ifodalaydi

Null and void - bekor va yaroqsiz

Aid and abet – yordam berish va ragʻbatlantirish (jinoyatda)

Goods and chattels – mol-mulk

Wills and testament – vasiyatnoma

Land and tenement – yer-mulk

Huquqiy matnlar tilida ishlatiladigan juft soʻzlardan tashqari uchlik ifodalar ham qoʻllanilish jihatidan eʼtiborga molikdir: *arbitrary, capricious and unreasonable; rest, residue and remainder; right, title and interest, signed, sealed and delivered; give, devise and bequeath; grant, bargain and sell; acts, defaults and gross negligence; order, adjudge and decree; remise, release and forever quit claim*. (asossiz, beqaror va mantiqsiz; qolgan barcha mulk; huquq, egalik huquqi va manfaat, imzolangan, muhrlangan va topshirilgan; mulkni bermoq va vasiyat qilmoq; mulkni bermoq, kelishuv asosida oʻtkazmoq va sotmoq; harakatlar, maʼjburiyatni bajarmaslik va qoʻpol beparvolik; buyurmoq, hukm qilmoq va qaror qilmoq; voz kechmoq, ozod qilmoq va abadiy huquq daʼvosidan voz kechmoq). Bu kabi dubletlar va uchlik ifodalar huquqiy matnlar tilida aniqlikni va rasmiylikni ushlab qolish uchun ham atay ishlatilishini kuzatish mumkin.

Hozirgi kunda ham huquqiy matnlar tilida inglizcha, lotincha va fransuzcha soʻzlarni aralashtirib ishlatish amalda sezilarli darajada mavjud boʻlib, u huquqshunoslar tomonidan nafaqat mavhumlikdan qochishga, balki oʻz fikrlariga ishonitirishga va shu bilan birgalikda yuridik dabdabaga xoslikni ham namoyon qilishga yordam beradi. Shu sababdan ham huquqiy matnlar koʻp jihatdan til muzeyiga oʻxshatiladi [8, 215].

Yana bir huquqiy matnlari tilning oʻziga xosliklaridan biri uning tushunarsizligida va arxaizmlardan faol foydalanishida koʻrinadi. Qadimgi va Oʻrta ingliz davrlarida ishlatilgan va hozirgi zamonaviy ingliz tilida tushunilishi qiyin boʻlgan soʻz va iboralarning koʻp uchrashi uning tushunarsiz til deya taʼrif berilishini isbotlaydi: *hereof, thereof, hereinafter, hereunder, heretofore, aforesaid, darraign, feoff* [1,28] (mazkur hujjatning, shuning...,bundan keyin shunday ataladi, quyida keltirilgan, shu vaqtgacha, yuqorida qayd etilgan, daʼvoni asoslash, koʻchmas mulkka egalik huquqini rasmiy tarzda boshqa shaxsga oʻtkazish).

TILSHUNOSLIK

Polisemik so'zlarning faol ishlatilishi ham aynan qaysi kontekstda qanday ma'no ifodalashini bilish zaruriyatini ochib beradi. Masalan, *o'ylab ko'rish*, *e'tibor qilish*, *inobatga olish* ma'nolarini ifodalaydigan *consideration* so'zi yuridik kontekstda ishlatilganda *tovon*, *almashuv qiymati* (*shartnomada tomonlarning biri ikkinchisiga beradigan pul, xizmat, tovar yoki va'da*) degan ma'nolarni tashiydi va u shartnomani yuridik kuchga ega ekanligini ko'rsatib berish uchun zaruriy komponent hisoblanadi. *Ushlamoq*, *tutmoq* ma'nosiga ega bo'lgan *hold* so'zi ham sud jarayonlarida ishlatilganda *rasmiy qaror qabul qilmoq* ma'nosi bilan ishlatiladi. *Said* so'zi ham mana shunday grammatik shakli bilan qonun hujjatlarida *yuqorida tilga olingan*, *mazkur* degan ma'nolarni ifodalab ko'p o'rinlarda uchraydi. Shu kabi polisemik so'zlarga misollar: *action*, *attachment*, *execute*, *hand*, *party*, *prefer*, *redemption*, *furnish*, *construction*, *find*, *tender* (*da'vo*, *musodara*, *rasmiylashtirmoq*, *vakolat*, *tomon*, *imtiyoz bermoq*, *garovdagi mulkni qaytarib olmoq*, *taqdim etmoq*, *izohlamoq*, *hukm qilmoq*, *to'lov taklifi*).

Huquqiy matnlari tilni grammatik jihatdan tahlil qilish orqali avvalo gaplarning uzun va murakkab tuzilishini sezish mumkin bo'ladi. Bunga esa asosan yuqorida ko'rib chiqilgan turli tillardan kelib chiqqan so'zlar, dubletlar, uchlik ifodalar, punktuatsiyaning kam o'rinlarda ko'rinishi, o'ziga xos so'z tartibi, takrorlar, sifatlovchilari ko'p bo'lgan otli birikmalar, predlogli frazalar, qo'shma, ergash va murakkab gaplarning ko'p qo'llanilishi sabab bo'ladi. Tinish belgilaridan juda kam miqdorda foydalanish huquqshunoslikda qonunchilik hujjatlarida yetkaziladigan ma'no faqat so'zlar bilan bo'lishi kerakligi, tinish belgilaridan foydalanish esa noaniqlikni, chalkashlikni keltirib chiqarishi haqidagi qadimdan shakllangan tushunchalarning mahsulidir [3].

Otlashuv (nominalizatsiya) ham huquqiy matnlari tilning ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ma'no to'g'ridan-to'g'ri fe'llar bilan emas, fe'llardan yasalgan otlar ishtirokidagi so'z birikmalaridan foydalanish orqali yetkazilganda yuridik tilda harakatga emas, o'sha ma'noni ifodalaydigan jarayonga va uning huquqiy ahamiyatiga ta'kid seziladi. Masalan, *to agree* fe'li bilan ifodalansa ham bo'ladigan ma'no *to be in agreement* otli birikmasi ko'rinishida ishlatiladi [1,34]. Otlashgan so'z birikmalaridan foydalanish nutqning murakkabligini oshirishga hissa qo'shganligi sababidan tanqid ostiga olingan bo'lishiga qaramay, bu huquqiy matnlari tilning ajralmas xususiyatlaridan bo'lib qolishi advokatlarining *to arbitrate* emas, *to go into arbitration* deyishlari orqali huquqiy jarayonga urg'u berishlarida va bu shundayligicha qolishida ko'rinadi [2,20]. Boshqa misollar: *to be in consideration=consider*, *to be in opposition=oppose*, *to be in contravention=contravene*, *to make a decision=decide*, *violation of contract=violate*, *to make assignment=assign*, *to give consent=consent*.

Huquq sohasi mutaxassislarining asosiy maqsadlaridan biri obyektivlikni saqlagan holda fikr bildirish bo'lganligi sababidan ular ishlatadigan grammatik vositalar ichida majhul nisbatning unumli foydalanilishi harakat bajaruvchisidan ko'ra harakatning o'ziga ta'kid borligini namoyon etadi. Ma'lum shaxsga aniq yo'nalmaganlikni ko'rsatadigan olmoshlardan ham unumli foydalaniladi. So'zlashuv nutqida keng qo'llaniladigan *will* o'rnida *shall* ko'proq ishlatiladi. Vasiyatnoma va so'nggi so'zlarda ham ikkinchi shaxsga nisbatan (you) to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilinmaydi. Sababi meros qabul qiluvchilarga to'g'ridan-to'g'ri buyruq, ogohlantirish yoki mas'uliyat yuklanmaydi va shu boisdan birinchi shaxsdan foydalangan holda fikr bayon etiladi. E'tiborli jihati shundaki, hattoki sud jarayonidagi guvohlarning nutqida ham 2- yoki 3-shaxsga to'g'ridan-to'g'ri ishora qilinmaydi, uning o'rniga ot va otli birikmalardan foydalaniladi [1,35]. Olmoshlardan *everyone*, *everybody*, *every person* kabilar qonun hamma uchun barobar ekanligini, *no one*, *nobody* esa to'liq ta'qiqni ifodalashga xizmat qiladi.

Yozma nutqdan sezilarli darajada farq qiladigan og'zaki huquqiy matnlari tilning sud jarajoni diskursiga qiziqqan lekin kasbi huquq sohasida bo'lmaganlar uchun ham tushunilishi birmuncha oson kechadi. Sud zalidagi nutq xuddiki hikoya tiliga o'xshab kirish, o'rta va xulosalovchi qismlarga bo'linadi va shunga muvofiq gaplar tuziladi.

Affiksatsiya usuli bilan *-er*, *-or*, *-ee* yordamida yasalgan otlar ham yuridik nutqda faol qo'llaniladi: *lessor – lessee*, *appointor – appointee*, *donor – donee*, *assigner – assignee*, *feoffor – feoffee* kabi. Bu kabi so'z yasash orqali *-er*, *-or* suffikslari mol-mulkni berayotgan shaxs sifatida, *-ee* esa foydani qabul qilib olayotgan odam sifatida anglashiladi. Birgina *mortgagor* va *mortgagee* so'zlarida esa buni aksi nazarda tutiladi [1,31].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib shuni ayta olamizki, huquqiy matnlar tilni o'zining maxsus ishlatiladigan leksik-semantik birliklari va grammatik tuzilishi bilan ingliz madaniyati, milliy mentaliteti, siyosiy qadriyatlari va tarixiy voqealar bilan bog'liqlik xususiyatlarini ham o'zida mujassam etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amadi, C. Lexical and Syntactic Features of Legal English: Implications for Use of English Teaching in Nigeria. *Icheke Journal of the Faculty of Humanities*. Vol.18. No1 March, 2020 pp. 23-42 www.ichekejournal.com
2. Bhatia, V.K. (2014). *Analyzing Genre: Language use in professional settings*. London: Routledge, - P 20
3. Crystal, D. & Davy, D. (2016). *Investigating English style*. London: Routledge
4. Goddard, C. (2010). Didactic aspects of Legal English. *Dynamics of course preparation*. Legal English Across Cultures. Special Issue. *ESP Across Cultures*, 7.
5. Halliday, M.A.K., & Matthiessen, C.M.I.M. *Halliday's Introduction to functional grammar* (4th ed.). Routledge
6. Mattila, H.E.S. (2006). *Comparative Legal Linguistics: Language of Law, Latin and modern lingua francas*
7. Melinkoff, D. *The Language of the Law*. Little, Brown and company – Boston: Toronto, 1963. Pp 552
8. Northcott, J. (2013). Legal English. In B.Paltridge and S.Starfield (Eds). *The Handbook of English for Specific Purposes*. Pp. 213-226 West Sussex: John Wiley & Sons
9. Tiersma, P.M. (1999). *Legal Language*. Chicago: University of Chicago Press